



KOMPOZITOR DILOROM OMONULLAYEVANING "YOMG'IR" QO'SHIG'I ESTRADA XONANDA VA GURUHLARI IJROSIDA

Muallif: Ataboyeva Nigina Davlatjon qizi¹, Professor M. Bafoyev²

Affiliatsiya: O'zbekiston davlat Konservatoriysi "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrası 1-kurs bakalavr talabasi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14465174>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek estrada san'atining shakllanishi, estrada rivoji uchun ijod qilgan shaxslar, Dilorom Darvinovna Omronullayevanining "Yomg'ir" qo'shig'i taxlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: estrada, Botir Zokirov, "Yalla" guruhi, shedevr, "Ko'k choy" guruhi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida misli ko'rilmagan o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, professional musiqaning murakkab Yevropa janrlari bo'l mish opera, balet, vokal-simfonik musiqa yo'naliishlari, estrada musiqasi, pop-musiqa, rok-musiqa, rep-musiqa amaliyotga kirib keldi. O'zbek estrada san'atining ilk ko'rinishlaridan biri 1927-yil Ali Ardobus (Ibrohim)ning tashabbusi bilan bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra Samarcand shahrida yosh havaskorlar tomonidan tuzilgan "Ko'k ko'yylaklar" ansamblı birinchilardan bo'lib o'z konsertlariga "Estrada konserti" deb nom berganlar. Aytish joizki, tinimsiz izlanishlar natijasida o'zbek milliy estrada musiqasi yaxlit ijod tizimi va janr sifatida tarkib topdi. Bundan tashqari Botir Zokirov va Luiza Zokirovalarning xizmatlari beqiyosdir. Shuningdek, Ye. Shirayev tashabbusi bilan tashkil topgan Farrux Zokirov boshchiligidagi "Yalla" guruhi. "Yalla" ansamblı 1975-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan" unvoniga sazovor bo'lган. Ijro etgan asarları "Toshkentim onam", "Maftun bo'ldim", "Go'zal qiz", "Muhabbat", "Ra'ho", "Seni eslayman", "Majnuntol", "Sen bo'lmasang yonimda", "Shahrisabz". Bu ro'yxatdagi she'rlar uzoq davom etadi. Bu asarlar koloritliligi, milliy ohanglarning mohirona qo'llanilganligi bilan muhim ahamiyatlidir. Hattoki hozirgi kunda ham bunday shedevr asarlar xalqimiz tomonidan sevib tinglanadi, ijro qilinadi va davlat tadbirlarida ijro etilishi o'lmas asarlar ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda ham faoliyat olib borayotgan estrada san'atining yorqin namoyondalaridan biri professor, kompozitor, "Do'stlik" ordeni sohibasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Dilorom Omronullayeva Darvinovna. O'zbekiston davlat Konservatoriyasida "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" bo'lmidida Professor Rumil Vildanov va Boris Zeyzman qo'li ostida tahsil olgan. Dilorom Omronullayeva 1997-yikdan buyon Samarcanda har ikki yilda o'tkaziladigan xalqaro "Sharq taronalari" musiqa festivali madhiyasining muallifi hisoblanadi va bu madhiyaning matn muallifi Usmon Azimdir. Bundan tashqari Dilorom Omronullayeva xalqimizning sevimli shoiri,

dramaturg, yozuvchi, tarjimon, xalq artisti Usmon Azim bilan o'lmas asarlarni hamkorlikda yaratganlar. Binobarin, "Yomg'ir", "Dunyolarga alishmasman", "Bu dunyo sendan ham mendan ham qolar", "Sen ketarsan", "Sen eding", "Bermayman" xalqimizning sevimli qo'shiqlari bo'lib ulgurdi. Iste'dodli shoir Usmon Azim qalamiga mansub "Kuzgi bog'", "Saratonning samovatida", "Sohilini qayraydi dengiz", "Men senga osmonni keltirdim, sevgim", "Bolalikdan 3 xotira", "Endi bizga sevgi xatarlidir" o'zbek adabiyotidagi eng mashhur asarlaridandir. Dilorom Omonullayeva qo'shiqlari ko'pgina estrada xonandalari va ansanbillari tomonidan turli xil talqin va cover usullarida ijro qilinmoqda. Ular orasidan barchaga mashhur bo'lgan "Yomg'ir" qo'shig'ini turli jamoalar va yakka xonandalari ijro variantlarini o'xshash va farqli tomonlarini birgalikda ko'rib chiqamiz.

"Yomg'ir" qo'shig'i birinchilardan bo'lib Kumush Qodirovna Razzoqova tomonidan ijro qilingan. Kumush Razzoqova Soprano ovozi sohibasi bo'lib, uning ovozi iliq, mayin, yoqimli tembrga ega. Ushbu xonanda o'rta va yuqori registrlarda ta'sirchan ifodali tovushlarga ega ekanligi bilan boshqa xonandalardan ajralib turadi. Kumush Razzoqova ijrosidagi "Yomg'ir" qo'shig'i badiiy va aranjirovka tomonidan yetukligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qo'shiqnini bunday mashhurlikka erishishiga sabachilaridan biri professional aranjirovkadir. Aranjirovkadagi ovozlar ustida mukammal ishlagan shaxs prodyuser va kompozitor Vladimir Vasileyevich Baramikov. U sezilarli darajada kompyuter ovozlari va sintetik tovushlardan keng ko'lamda foydalangan, tovushlar ohanglari shunday mohirona tanlaganki, tabiat va fazoviy ohanglar ijro davomida vokalistga bamisoli qanot baxsh etadi.



Kumush Razzoqovadan so'ng ushbu asar Yulduz Turdiyeva uslubida o'zgacha namoyon bo'lgan. Yulduz Turdiyevaning ovozi tiniq, to'liq va kuchli yangrashi bilan e'tiborlidir. Kumush Razzoqova va Yulduz Turdiyeva ijrosidagi "Yomg'ir" qo'shig'ining bir-biridan farqi aranjirovkasidadir. Yulduz Turdiyeva ijrosidagi aranjirovka qismida buben cholg'usi ritmni ifodalashda ustuvorlik qilishini ko'rishimiz mumkin.



Diqqatga sazovorligi shundaki, ushu qo'shiq yakkaxon xonandalar tashqari estrada va jazz guruhlari tomonidan cover variantida ijro qilingan deb bemalol aytishimiz mumkin. Misol tariqasida "Ko'k choy" jamaosining ijro talqini yuqoridagi fikrimizga isbot bo'ladi. Bu cover variant hozirgi kunda jonli ijro videolari ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan. Asosiy g'oyadan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, melodik va garmonik yo'llarida bosqichma-bosqich jazzlashtirish harakatlarini qo'llanilganligini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Dilorom Darvinovna Omonullayevanining ushbu "Yomg'ir" qo'shig'i ko'plab estrada ijrochilariga ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa ushbu qo'shiqni turli xil ranglarda ommaga taqdim etilishini ta'minlaydi. Albatta, bu kabi o'zgarishlar chog'ida badiiy ma'nodan uzoqlashish holatlari kuzatilganligi sababli, qo'shiqning asl holati buzilishi mumkin. Lekin, harakat bor joyda o'sish bo'lganidek, qo'shiq o'zining yangi ranglarini va yorqin tomonlarini kashf etadi. So'zim so'ngida estrada san'ati ijodkorlari ahliga ulkan omad va zafarlar tilab qolaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Toshkent-2009;

Jabborov A. O'zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari. Toshkent-2018;

Abdullahova O. Cholg'ushunoslilik. Toshkent-2018;